

Surat so`zlaganda

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Ilmiy Hodimi Qosimjonova Sadoqat

Namangan viloyati tarixi va madaniyati Davlat muzeyi o`zining yangilanish davrini boshdan o`tkazmoqda. Bir yuz besh mingdan ortiq asori-atiqaga ega bo`lgan muzeyimiz respublikamiz muzeylari ichida oldingi o`rindan birini egallab turgani albatta bizni quvontiradi.

Muzeyga kelgan ziyoratchilardan bitta tilagimiz shuki, u muzey eksponatlarida san`at asarlaridan, o`tmish asori-atiqalaridan , ajdodlarimiz qoldirgan kitoblardan zavq olish , undan chuqur mutaassir bo`lish uchun kelsa. Ko`z o`ngida namoyon bo`lgan moziy darsxonasi ta`sirida mutloqo yangi odatga aylanmasada , ezgu his tuyg`ular to`lqiniga g`arq bo`lgan xolda muzey zallarini tark etsa deymiz.

Tomoshabin ziyoratchining ham turlicha bo`lgani qiziq. U qadar talabchan bo`lmagan tomoshabinga ekspozitsiyaga qo`yilgan eksponatlar qanchalik qiziqarli bo`lsa shuncha yaxshi , lekin talabchan ziyoratchilarning diqqatini jalb etish oson emas. Negaki asori-atiqalar ekskursiya olib olib borilayotgan ilmiy hodimning ma`ruzasi uning qalbida aks-sado uyg`otganini sezmasligi kerak. Zero xar qanday eksponat o`zining qiziqarli tarixi orqaligina kishi diliga chuqur singib, unda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Tomoshabin bunday ta`sirotni bir necha kun , haft va balki undan ham ko`proq vaqt unitilmaydi. Masalan, o`ng ming yillar oldin qirilib ketgan sut emizuvchi xayvonlarning vakili karkidonning (ilmiy nomi Indikateriy) bosh suyagi , yoki, bir necha o`n ming yillar oldin viloyatimiz atrofida (Pop, Munchoqtepa) yashagan odamlarning qamishdan yasalgan tobut va mayitning qoldiqlarini ko`rish va uning tarixidan mutaassir bo`lish, bir-biridan ta`sirli tasviriy san`at asarlarini yutoqib tosha qilib toshosha qilish bir umr esdan chiqmaydi.

Muzeyning tarix bo`limini arxiologiya qismida Qo`qonning oxirgi xoni Xudoyorxonning surati va tavsifi berilgan. Siz bilasiz bu xonning nomi juda ko`p rivoyatu voqealarni eslatadi. Zero musulmon xukumdorlaridan kechirgani rost . Birinchi bor o`n to`rt yoshida (Qaynotasi Musulmonqulning ko`magida) taxtga o`tirgan bu xon o`z saltanatdan uch bora maxrum etilib, yana qayta tiklangan va oxirida rus podshoxigi tomonidan taxtdan tushirilib, aldovi firib bilan Orenburgga olib ketilib, nazorat ostida saqlanadi. Xon u yerda bir amallab qochib Makkaga ketadi va xayotining so`ngi qismini o`sha yerda o`tkazadi.

(Makkadan biror tadbirkor kelsa aytinglar, mablag`ni berib, o`sha joyda bir takya (istiqomat joyi) soldiramiz), degan ekan xon davlati juda avjida paytida. Vaqtini shunday bir odam kelganda xon unga ziyorat qilibdi –yu, xech nima demay jo`natib yuboribdi. Yaqinlaringni <Xonim>, nega o`sha aytgan xizmatigizni buyurmadingiz buyurmadingiz ?> - degan so`roqlariga; <Ko`p ko`rimsiz kishi ekan, menga uncha pisand bo`lmai>, deb javob qilgan ekan xon. Qarangki, u qochib ne azoblar bilan Makkaga yetib borganida o`sha – o`zi qaytarib yuborgan Makkalik xoji Muhammadboy Konibodomiynikiga tushib, undan ko`p mehribonliklar ko`ribdi. O`sha voqealarni eslatibdi, xon uni pisand qilmaganidan ko`p xijolatlar bo`libdi, xaligi xamyurti esa xonga tasalli berib, unga aloxida takya beribdi.

Ittifoqo bir kuni Xudoyorxon ko`chaga chiqqanida biro dam bir payola choy turibdi. Xon so`riga o`tirib choyni ichib turgan paytida biro dam kelib xonning og`ziga kata tosh bilan uribdi, xonning og`zi qop-qora qon bo`lib, ikkinchi tishi sinibdi. Qo`riqchilar xaligi odamni tutib, taxtish qilishganida u : <Aslim Namanganning To`raqo`rg`onidanman, ilgari sarkor edim, xonga soliq yig`ib berganimdan, xiyonat qilgansan, deb mening xovli joyimni oldirib qo`ygan edi. Shunda bir kuni xondan qasos olishni ko`nglimga to`yib qo`ygan edim, alhamdulillah maqsadimga yetdim> , debdi. Aytishlaricha , xon musofirlikda yegan bu kaltagidan keyin o`nglanmasdan, kundan kunga zaiflashibdi, yurtiga qaytishni ko`ngli qo`msab , oxiri yo`lda – Afg`on tuprog`ida , Amudaryoga yetay deganda xor zorlikda olamdan o`tgan ekan.

Xudoyorxonning qanday xon bo`lganligi – odilmi, zolimmi – bu tarix xukmiga xavola. Ammo men bosqinchi dastidan o`z taxti-baxtidan judo bo`lib, musofir yurtlarda sarson sargardonlikda gox mexr ko`rib, gox og`zidan tosh yeb yurgan, o`z vatani, saltanati davrida olamdan o`tgan bir g`arib xamvatan ajdodimiz ruhiga duo yu fotixa qildim. Bunga ko`shilish-qo`shilmaslik Sizning ixtiyoringizda.

Xonning qanday vafot etgani yaqin tariximizning kir, qonli qatlamlari orasida sirligicha qoldi. Bu esa muzeydagi taasurotlarimizdan tug`ilgan bir xotira xolos.Xulosa esa o`zingizga xavola.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Moziydan sado ilmiy-amaliy,ma`naviy-marifiy jurnal 4.(68).2015 yil soni.
- 2.San'at jurnal.2/2013 yil soni.
- 3.San'at O`zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali 1/2018 yil №78
- 4.Tamaddun Tariximizni o`rganamiz 6-son 2023 y
- 5.Namangan sadosi gazeta 3 soni apreль'.
6. Namangan viloyati me`moray obidalar sirlari. Namangan nashriyoti I.YU. Yusupov. E. Yu. Mirzaliev
7. Namangan viloyati ziyoratgoxlari.Namangan shaxri 2015 y. L. Axmadalieva
- 8.Mirzaaliyev E. Namangan viloyat o`lkani o`rganish muzeyi : kecha va bugun. – Farg`ona. Farg`ona nashriyoti, 2010. – B. 18.. 2.Mirzaaliyev E.
9. Namangan viloyat o`lkani o`rganish muzeyi : kecha va bugun. – Farg`ona. Farg`ona nashriyoti, 2010. – B. 22.
- 10.<https://lex.uz/uz/docs/-3451889>